

Markazning asosiy vazifa va funksiyalari

1. Favkulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarini boshlang'ich tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda maxsus va kasbiy tayyorgarlik faoliyatini amalga oshiradi;

FVV shaxsiy tarkibini samarali tayyorlashda o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ko'rgazmali tarqatma materiallar, (buklet, plakat, slayd, stend va boshqalarni) videoroliklarni ishlab chikadi;

zamonaviy o'qitish tizimini ta'lim jarayoniga tadbiiq qilish maqsadida, Markaz faoliyatining asosiy yunalishlari buyicha doimiy ravishda o'quv-metodik bazasini rivojlantirib boradi.

2. zamon talablariga javob beradigan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yong'in-qutqaruvchi, qutqaruvchi-g'avvos, radiasion, kimyoviy va biologik (bakteriologik) muhofaza qutqaruvchilari, (ximik-razvedchik, biolog-razvedchik, radiometrist-razvedchik, haydovchi-qutkaruvchi (yongin, qutqaruv va g'avvos), gaz tutundan himoya qilish xizmati ustasi, fel'dsher-qutqaruvchi va dispetcherlarni boshlang'ich tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshirish, shuningdek mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, shartnoma asosida korxonalar va tashkilotlarning yong'in-qutqaruvchilarni tayyorlaydi va malakasini oshiradi;

vazirlikning yong'in-qutqaruvchi bo'linmalari xodimlarini boshlang'ich tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqadi;

xodimlarning kasbiy salohiyatini shakllantirish, o'zining harakatlarida mas'uliyatni his qilgan holda bajarish, tezkor faoliyat turlarini hisobga olgan holda ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda takomillashtirishga intiladi;

xodimlarga yong'inlarni o'chirishni hamda qutqaruv ishlarini o'tkazishda kasbiy va shaxsiy xavfsizlik usullarni o'rgatadi;

xorij mamlakatlarining ilg'or tajribalarini o'rganish, shuningdek pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayonida o'qitishning yangi shakllari va usullarini joriy etish hamda masofali o'qitishning samarali tizimini qo'llaydi;

maxsus texnikalar, yongin-texnik, avariya-qutqaruv uskunalari, transport va aloqa vositalari, shuningdek elektron-hisoblash qurilmalaridan foydalanish ko'nikmalarini takomillashtiradi.

xalqaro ta'lim standartlari va talablariga muvofiq ravishda ukuv-metodik qo'llanmalarni yaratadi va ishlab chikadi;

ushbu yo'nalishda xorijiy tajribalarni o'rganadi va markazda amalga tadbiiq etish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

Markaz Pedagogik kengashida o'quv qo'llanmalari, tarqatma materiallar (buklet, plakat, slayd, stend va videorolik) lar tayyorlanishi buyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishni hisobga olgan holda, favkulodda vaziyatlarning oldini olish muammolarini o'rganadi va tahlil qiladi.

markazning maxsus texnikalar, yongin-texnik, avariya-qutkaruv uskunalari, transport va aloqa vositalari, shuningdek elektron-hisoblash qurilmalari bilan ta'minlaydi;

axborot-resurs markazini fondini boyitish uchun doimiy ravishda zaruriy o'quv-uslubiy hamda maxsus o'quv adabiyotlari bilan ta'minlaydi;

Favkulodda vaziyatlar vazirligi rahbariyati tomonidan berilgan boshqa topshiriqlarni kelishilgan holda bajaradi.